

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

**TALABALIK DAVRIDA REFLEKSIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI**

Jo‘rayev Nurbek Sa’dullayevich

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor*

Psixologiya fanlari nomzodi, professor

Manzil: O‘zbekiston, 150700 Qo‘qon shahar

Email: nurbekjorayev926@gmail.com

ORCID: 0009-0001-3222-9219

Annotatsiya. Maqolada talabalarda refleksivlikni rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini olib berishga qaratilgan. Ayniqsa, xorij olimlarining refleksiya va refleksivlik borasidagi psixologik qarashlarning tahlillari keltirilgan. Shuning bilan birga talabalarda refleksivlikni rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlarining bayoni qayd qilingan.

Kalit so‘zlar: refleksiya, refleksivlik, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, kasbiy faoliyat, kasbiy qiyinchiliklar, mnemotexnika, psixotexnika, sxemotexnika, guruhiy texnika, ijtimoiy texnika.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ
РЕФЛЕКСИВНОСТИ В СТУДЕНЧЕСКОМ ВОЗРАСТЕ**

Аннотация. Статья направлена на раскрытие психологических возможностей развития рефлексивности у студентов. В частности, представлен анализ психологических взглядов зарубежных ученых на рефлексию и рефлексивность. При этом отмечено описание исследовательских работ, направленных на определение уровня развития рефлексивности у студентов.

Ключевые слова: рефлексия, рефлексивность, самоконтроль, самоуправление, профессиональная деятельность, профессиональные трудности, мнемотехника, психотехника, схемотехника, групповая техника, социальная техника.

**PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING REFLECTION
DURING STUDENT AGE**

Abstract. The article is aimed at revealing the psychological possibilities of developing reflexivity in students. In particular, an analysis of the psychological views of foreign scientists

on reflection and reflexivity is presented. At the same time, a description of research works aimed at determining the level of development of reflexivity in students is noted.

Keywords: reflection, reflexivity, self-control, self-management, professional activity, professional difficulties, mnemonics, psychotechnics, circuit design, group technique, social technique.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda tahsil olayotgan talaba shaxsida o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazaridan talaba shaxsida o‘ziga bo‘lgan munosabatlar negizida refleksiv jarayonlarni uyg‘un, yoshga bog‘liq ravishda rivojlanishini ta’minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talablarida refleksiyani rivojlanganligini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala kasbiy faoliyati nuqtai nazaridan keng doirada o‘rganib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

T.N.Boldinova tomonidan faol hamkorlikka, har bir ishtirokchiga hurmat va xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lishga ko‘maklashadigan, bilim va tajriba to‘plashni ta’minlaydigan, o‘zaro bog‘lanish hamda o‘zaro baholash va o‘zaro nazorat qilish imkoniyatini beruvchi o‘qitishning interaktiv usullarining butun majmuasini joriy etishni taklif qiladi [2]. Shuningdek, E.I. Mishina psixologiyada shaxsiy refleksiya hodisasini o‘rganar ekan, kasbiy faoliyatagi qiyinchiliklar tug‘diradigan vaziyatni modellashtirish uchun psixologik-pedagogik algoritmlardan foydalanish imkoniyatini ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida refleksiv mexanizmlarni faollashtirishga xizmat qiladi. Bunda muallif refleksiyaning ikkita muhim funksiyasiga tayanadi: motivatsion va maqsadni shakllantiruvchi, ulardan foydalanish kasbiy muammoni hal etish jarayonida o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi nazorat qilishni rivojlanirish rag‘batlantirish imkoniyatini beradi. Muallif talabalar refleksiyasi va o‘zini o‘zi anglashi o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiyasi mavjudligini aniqlashga harakat qildi [5]. Ta’kidlash kerakki, T.V.Dmitrieva refleksiyani rivojlanirish uchun sharoit yaratish zarurligi xususida fikr yuritib, uni rag‘batlantirish, rivojlanirish, kuchaytirish, refleksiv rivojlanish sharoitlarini yaratish mumkinligi haqida ma’lumotlar taqdim qiladi [4]. Unda tashkiliy-amaliy o‘yinlar, munozaralar, guruhiy refleksiya, refleksiv polilog, trening, inversiya, pozitsiyaviy munozara kabi usullar haqida ma’lumot beriladi. Uning fikricha, talabalarda refleksiyani rivojlanirishning eng muhim boshlang‘ich ichki (psixologik) sharoitlari (shart-sharoitlari) quyidagilardan iborat:

1) haqiqatni anglashga, tushunishga, qayta ko‘rib chiqishga intilish;

2) refleksiv faoliyatning mazmuni va tuzilishi, uning maqsadi, vazifalari, mazmuni to‘g‘risida tasavvurlarning mavjudligi;

3) intellektual operatsiyalarning shakllanganligi - refleksiv harakatlarning operatsion bazasi;

4) o‘zini refleksiya qiluvchi aktning faol mavzusi sifatida ifodalash, harakatlar, faoliyat.

Shuningdek, muallif yangi resurslarni faollashtirishni talab qiladigan muammoli vaziyat refleksiyasini faollashtirishini ta’kidlaydi hamda ularni izlash refleksiya orqali amalga oshiriladi. Refleksiyaning rivojlanishi o‘tgan materialga murojaat qilish, mashg‘ulotga munosabat, yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilish orqali ham amalga oshirilishi mumkin [3].

Ayniqsa, N.G.Bajenova o‘z tadqiqotida pedagog-psixologlarning ta’lim jarayonidagi refleksiyasi pedagogik-psixologik fanlarning refleksiv yo‘nalishida materialni muammoli, qisman qidiruv, munozarali tarzda bayon etish usullaridan foydalanishda faol rivojlanib borayotganini ko‘rsatdi. Ushbu usullar ta’limning refleksiv muhitini muammoli va ziddiyatli vaziyatning mavjudligi orqali yaratish imkonini beradi: refleksiv guruh amaliyotlari, o‘yinni modellashtirish va trening usuli [1].

Refleksiyaning faol rivojlanishi tashkiliy-amaliy o‘yin davomida qayd etiladi. Tashkiliy o‘yin deganda faol ijtimoiy-psixologik o‘qitishning o‘yin usuli, o‘quvchilar tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etishni modellashtirishdan foydalangan holda dolzarb nazariy va amaliy muammolar hal etiladigan operatsion o‘yinlar turi tushuniladi. Natijada, ijodiy tafakkurning refleksiv komponenti rivojlanadi [6]. U ishbilarmonlik o‘yinidan ancha uzoq vaqt (qoida tariqasida, besh kun davomida) o‘tkazilishi bilan farq qiladi. Ayniqsa, tashkilotchilarning keng doirasi: rejissyor, ssenariynavis, metodolog va o‘yin texnikalari ishtirokini, refleksiv metodikalardan majburiy va keng foydalanishni nazarda tutadi.

Tashkiliy-faoliyat o‘yindagi tarkibiy bazaviy texnologiyalar: mnemotexnika (tushunchalar tizimini rivojlantirish); psixotexnika (motivlar tizimini boshqarish); sxemotexnika (tushunchalarni grafik shaklga o‘tkazish); guruhiy texnika (guruhiy faoliyatni tashkil etish); ijtimoiy texnika (ijtimoiy tajribadan o‘qitish vositasi sifatida foydalanish). Ulardan foydalanishning muhim nuqtasi bo‘layotgan jarayonlarning, bilim va o‘zaro hamkorlik tizimining o‘tmishdagi holati va ularning istiqboldagi holatining doimiy aks ettirilishidir. Tashkiliy-amaliy o‘yinlarni o‘tkazishning to‘rtta asosiy natijalari aniqlanadi.

Birinchisi, biz uchun eng muhimi: ta’lim oluvchilarning tafakkurini rivojlantirish, samarali aqliy faoliyat usullarini ishlab chiqish, haqiqatni tahlil qilish, nazariy va amaliy muammolarni shakllantirish va ularni hal etish qobiliyati hisoblanadi. Biroq, real natija va refleksiyani rivojlantirish borasida tashkiliy-faoliyat o‘yinlarini qo‘llash samaradorligiga qaramasdan, bu usulni amaliyotda qo‘llash ancha moddiy va murakkab hisoblanadi. G.P.Shchedroviskiyning fikriga ko‘ra, tashkiliy-faoliyat o‘yinni jamoaviy fikrlash faoliyatini tashkil etishning alohida shakli sifatida ishlab chiqdi. Unda refleksiya bu sharoitda tafakkur faoliyati uchun asos bo‘ladi [6].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma’lumki talabalik davrida refleksivlikni rivojlanishini o‘rganish muhim hisoblanadi. Jumladan, talaba shaxsida refleksivlikni rivojlanishi ularning o‘quv faoliyatiga, bilish faolligiga hamda kasbiy bilimlarni egallash jarayonlariga o‘zining ijobiyligi ta’sirini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida talabalik davrida o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi nazorat qilish kabi refleksiv mexanizmlarini rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan olganda,

talabalik davrida refleksivlikni rivojlanishini o‘rganish maqsadida “Refleksivlik darajasini aniqlash” metodikasi (V.V.Ponomaryov) dan foydalanildi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinib, jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

1-kurs talabalarida refleksivlikning ustuvor strategiyalari o‘rtasidagi aloqadorlik

Refleksivlikning ustuvor strategiyalari		Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi	Ayni vaqtidagi faoliyat refleksiyasi	Kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi	Muloqot va boshqa shaxslar bilan o‘zaro ta’sir refleksiyasi
Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi	1	0,32**	0,19**	0,18**	0,18**
Ayni vaqtidagi faoliyat refleksiyasi	0,32**	1	0,18**	0,24**	
Kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi	0,19**	0,18**	1	0,24**	
Muloqot va boshqa shaxslar bilan o‘zaro ta’sir refleksiyasi	0,18**	0,24**	0,24**	1	

Jadval natijalariga ko‘ra, faoliyatning retrospektiv refleksiyasi ayni vaqtidagi faoliyat refleksiyasi bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,01$), kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan ($r=0,19$; $p\leq 0,01$), muloqot va boshqa shaxslar bilan o‘zaro ta’sir refleksiyasi bilan ($r=0,18$; $p\leq 0,01$) bilan yuqori darajada aloqadorlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Natijalardan ko‘rinadiki, talaba shaxsida refleksivlikning ustuvor strategiyalari o‘rtasida ijobjiy bog‘liqlik mavjudligi kuzatildi. Empirik ma’lumotlar tahlilidan ko‘rish mumkinki, talabalik davrida o‘quv va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq masalalarida o‘zini o‘zi anglashi natijasida hozirgi kun talablarini to‘laqonli ravishda tushunib, o‘zining harakatlar sxemasini ishlab chiqishi ma’lum bo‘ldi. Shuning bilan birga talaba uchun yetakchi faoliyat ta’lim ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak. Albatta kelajakdagi faoliyatini oldindan ko‘ra olishi hamda insoniy munosabatlarni samarali tashkil qilishlari bilan taqazolanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayni vaqtidagi faoliyat refleksiyasi faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,01$), kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan ($r=0,18$; $p\leq 0,01$), muloqot va boshqa shaxslar bilan o‘zaro ta’sir refleksiyasi bilan ($r=0,24$; $p\leq 0,01$) yuqori ijobjiy ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd etildi. Ta’kidlash joizki, talabalik davrida ayni vaqtidagi faoliyat refleksiyasini o‘quv faoliyatida namoyon bo‘lishi ulardagagi faoliyat refleksiyasi, istiqboldagi vaziyatni oldindan ko‘ra olish, insoniy munosabatlarni oqilona tashkil qilish bilan tavsiflanadi.

Empirik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, kelajakdagi faoliyat refleksiyasi faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan ($r=0,19$; $p\leq 0,01$), ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bilan ($r=0,18$; $p\leq 0,01$), muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi bilan ($r=0,24$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Natijalardan ko'rinaldi, talabalik davrida kelajak faoliyat refleksiyasi refleksivlikning ustuvor strategiyalari bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi.

Muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan ($r=0,18$; $p\leq 0,01$), ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bilan ($r=0,24$; $p\leq 0,01$), kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan ($r=0,24$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada bog'liqlikka ega ekanligi empirik ma'lumotlar asosida ma'lum bo'ldi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, talaba shaxsida o'quv va kasbiy faoliyatlarini o'rinli ravishda rejalashtir olishi hamda boshqarish ko'nikmasiga ega ekanligi ularda muloqot va atrofdagi insonlarni idrok qilishlari bilan taqazolanadi. Bu esa, o'z navbatida talaba shaxsining faol ravishda ijtimoiylashuviga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan mualliflarning qarashlariga ko'ra, ta'lim vaziyatida refleksiyani rivojlantirish uchun quyidagilar zarur deb hisoblashadi: o'quv mashg'ulotlari davomida ham, mashg'ulot oxirida ham refleksiyani rivojlantirish texnologiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Shuning bilan birga, talabalarda fanlarni o'qitishda refleksiv yo'naltirilganligi, refleksiv shart-sharoitlar yaratish, muammoli vaziyatlar yaratish kabilalar muhim ekanligi qayd etiladi.

Bunday vazifalar refleksiv-perseptiv tahlilning yaxlitligidan kelib chiqqan holda qo'yilgan, chunki tadqiqotchilar tomonidan refleksiya va persepsiya o'rtasidagi korrelyatsiya aniqlangan. Shu bois, trening insonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik bilan bog'liq kasblar uchun dolzarbdir. Trening jarayonida o'zini o'zi bilish va boshqalarni bilish mexanizmlari hamda ijtimoiy-psixologik hodisalar doimiy ravishda qayta tiklanib, tahlil qilinadi. O'z navbatida treningning asosiy refleksiv usullaridan kasbiy faoliyatni tahlil qilish va o'zini o'zi tahlil qilish maqsadida foydalaniladi.

XULOSA

Keltirilgan tadqiqotlarning to'liq hajmini tahlil qilib, talabalik davrida refleksiyani rivojlantirish uchun o'quv mashg'ulotlarning (o'quv va mustaqil ta'lim) refleksiv yo'nalishi, bilish motivatsiyasi, refleksiya haqida shakllangan tasavvurlar, refleksiv operatsiyalarni bilish, shaxsning sub'ektivligi va faolligi kerak. Faoliyat shakllari sifatida har bir ishtirokchining yuqori darajadagi faolligi bilan turli xil guruhli faoliyat shakllariga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Баженова Н. Г. Формирование рефлексивной готовности будущих психологов-педагогов к профессиональной деятельности: автореф. дисс. ...канд. пед. наук. – Магнитогорск, 2006. – 24 с.

2.Болдинова Т.Н. Динамика развития рефлексии студентов-психологов в процессе обучения в вузе // Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. 2016. Том 5. № 5А. С. 100-110

3.Двоеглазова М.Ю. Структура личностной рефлексии студентов: Автореф. дис. канд. психол. наук: 19.00.01; —М., 2002. — 25 с

4.Дмитриева Т.В. Развитие рефлексии у студентов как педагогическая задача/ Т.В. Дмитриева // Вестник Тюменского государственного университета.—2009.—№ 5—с. 33-42.

5.Лукьянченко Н. В., Аликин И. А., Аликин М. И. Исследование обыденных представлений о психологическом просвещении// Modern Research of Social Problems. 2016. №. 9. С. 33-46.

6.Шадриков В.Д., Кургинян С.С. Исследование рефлексии деятельности и ее диагностика через оценку конструктов психологической функциональной системы деятельности // Экспериментальная психология. 2015. Том 8. № 1. С. 106–126.